

---

Rishton tuman sudlarida "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatish ishlari davom etmoqda.

2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini hal etish tizimini yanada takomillashtirish belgilangan. Yuqoridagi Farmon hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Rishton tumanlararo iqtisodiy sudi raisi U.Ergashev, FIB Rishton tumanlararo sudi raisi Sh.Axunbaev hamda jinoyat ishlari bo'yicha Rishton tuman sudi raisi U.Mexmonalievlar tomonidan Rishton tumanidagi Anxorbo'yi, Farovonlik, Birlashgan, Oq yer va Xoji qishloq MFYlar binosida sayyor qabullar o'tkazildi. Sayyor qabulda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordamlar ko'rsatildi va ularning qiziqtirgan savollariga tegishli tartibda javob berildi.

2022-07-14 18:24:10